ЗНАЧЕНИЕ РЕФОРМ, ПРОВОДИМЫХ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	2662
Гафуров Анвар Базарбаевич	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT VOSITALARI EGALARINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	2667
Temirov Jonibek Abdumavlonovich	
ПРОБЛЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	2673
Саидакбаров Хусниддин Абдусаломович	
SUG'URTA VA DAVLAT BUDJETI, YOXUD O'ZARO MUNOSABATLARGA YANGICHA NAZAR.....	2682
Shennayev Xo'jayor Musurmanovich	
MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ZARURLIGI VA AHAMIYATI	2686
Madaminov In'omjon Ozodovich	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2693
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARINI STRATEGIK BOSHQARISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	2700
O'ktamova Durdona Baxtiyor qizi, Mexmonov Sultonali Umaraliyevich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	2707
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I MODERNIZATSIYASI HOLATINI KOMPLEKS BAHOLASH	2713
Achilov Mashrab Urug'bekovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	2718
Djumanov Turat Alimbekovich	
KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH ORQALI HUDUDLARNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	2722
Rashidov Mels Karimovich, Umarov Xurshidbek Ixtiyor o'g'li	
KORXONALARDA RAQOBAT USTUNLIGINI YARATISHDA YANGILIKLARNI MOLIYALASHTIRISH VA XATARLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI	2727
Umarova Nilufar Abdukaxor qizi	
MEHNAT BOZORI KO'RSATKICHLARINING STATISTIK TAHLILI VA BANDLIK DARAJASI DINAMIKASI.....	2731
Qosimjonov G'ulomjon Qosimovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHDA RISK-MENEJMENTNING NAZARIY ASOSLARI	2735
Misirov Iskandar Abduvaliyevich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING JADAL RIVOJLANISHI SHAROITIDA O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQOBAT INDEKSI O'ZGARISHI VA UNING OMILLI TAHLILI	2740
Karimov Odiljon Boqiyevich	
OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI INSTITUTSIONAL MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	2746
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
BANK FILIALLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	2753
Xodjakulov Akmal Erkinovich	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI TA'MINLASHDA AKTIV VA PASSIVLARNING AHAMIYATI	2762
Raxmatov Xasan Utkirovich	
EKOLOGIK MA'LUMOTLAR OQIMLARINING SHAKLLANISH JARAYONI VA AMALDAGI AXBOROT TIZIMLARINING TAHLILI	2767
Homidov Hamdam Hasanovich	



МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ МЕЧТЫ ЧЕРЕЗ НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ОТ ИНТУИТИВНОГО ОБРАЗА К СТРАТЕГИЧЕСКОМУ ДЕЙСТВИЮ	2772
Никишина Изабелла Алиевна	
MEVA-SABZAVOTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA XARAJAT VA DAROMAD NISBATINI MODELLASHTIRISH HAMDA FOYDA BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2779
Rahmatullayev Mirjalol Xatam o'g'li	



MEVA-SABZAVOTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA XARAJAT VA DAROMAD NISBATINI MODELASHTIRISH HAMDA FOYDA BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Rahmatullayev Mirjalol Xatam o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

e-mail: raxmatullayevmirjalol0787@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida xarajat va daromad nisbatini modelashtirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot jarayonida narx, ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tarkibi, o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kontributsiya marjasi, zararsizlik nuqtasi, xavfsizlik zaxirasi hamda operatsion leverage koeffitsiyenti orqali tahlil qilindi. Amaliy baholash 2021–2023-yillar davomida “Asian Jam” MCHJ faoliyati misolida amalga oshirilib, moliyaviy ko'rsatkichlar ishlab chiqarish samaradorligi indikatorlari bilan kompleks tarzda uyg'unlashtirildi. Tadqiqot natijalari xarajatlar tarkibidagi o'zgarishlar foyda marjasi va korxona moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Energiya samaradorligini oshirish, xomashyo chiqishini ko'paytirish va mehnat unumdorligini yaxshilash orqali mahsulot tannarxini pasaytirish hamda foyda barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari asoslab berildi. Olingan xulosalar ishlab chiqarish, marketing va investitsion qarorlarni moliyaviy jihatdan asoslashda samarali boshqaruv vositasi sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xarajat–daromad modeli, kontributsiya marjasi, zararsizlik nuqtasi, xavfsizlik zaxirasi, operatsion leverage, tannarx, foyda marjasi, boshqaruv hisobi, ishlab chiqarish samaradorligi.

Abstract. This study examines the theoretical and practical aspects of modeling the cost–income relationship in fruit and vegetable processing enterprises. The research analyzes the interrelationship between price, production volume, product mix, and variable and fixed costs using contribution margin, break-even point, margin of safety, and operating leverage indicators. The empirical assessment was conducted based on the financial and production data of Asian Jam LLC for the period 2021–2023, integrating financial indicators with production efficiency measures. The results confirm that changes in cost structure have a direct impact on profit margin and the financial stability of the enterprise. The study substantiates the potential for reducing production costs and ensuring profit stability through improved energy efficiency, increased material yield, and enhanced labor productivity. The findings can serve as an effective management tool for financially substantiating production, marketing, and investment decisions.

Key words: cost–income model, contribution margin, break-even point, margin of safety, operating leverage, cost, profit margin, management accounting, production efficiency.

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению теоретических и практических аспектов моделирования соотношения затрат и доходов на предприятиях по переработке фруктов и овощей. В исследовании проанализирована взаимосвязь между ценой, объемом производства, структурой продукции, переменными и постоянными затратами с использованием показателей маржинального дохода, точки безубыточности, запаса финансовой прочности и коэффициента операционного рычага. Практическая оценка проведена на примере деятельности ООО «Asian Jam» за 2021–2023 годы, при этом финансовые показатели были комплексно сопоставлены с показателями производственной эффективности. Результаты исследования подтверждают, что изменения в структуре затрат оказывают непосредственное влияние на уровень прибыльности и финансовую устойчивость предприятия. Обоснованы возможности снижения себестоимости и обеспечения стабильности прибыли за счет повышения энергоэффективности, увеличения выхода продукции и роста производительности труда. Полученные выводы могут использоваться в качестве управленческого инструмента для финансового обоснования производственных, маркетинговых и инвестиционных решений.

Ключевые слова: модель «затраты–доход», маржинальный доход, точка безубыточности, запас финансовой прочности, операционный рычаг, себестоимость, маржа прибыли, управленческий учет, производственная эффективность.



KIRISH

Hozirgi sharoitda meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga qo'shimcha qiymat yaratish hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Mazkur tarmoqning barqaror rivojlanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni oqilona boshqarish va foyda barqarorligini ta'minlash bilan bevosita bog'liq. Ayniqsa, xomashyo narxlarining mavsumiy o'zgarishi, energiya resurslari tannarxining oshishi hamda bozor talabining o'zgaruvchanligi sharoitida korxonalarda moliyaviy natijalarni oldindan baholash va samarali boshqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish jarayoni yuqori darajada resurs talabchan bo'lib, xarajatlar tarkibida xomashyo, energiya resurslari, mehnat xarajatlari va texnologik yo'qotishlar salmoqli ulushni tashkil etadi. Shu sababli xarajatlar va daromad o'rtasidagi nisbatni chuqur tahlil qilish, ularning foyda shakllanishiga ta'sirini aniqlash hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. An'anaviy moliyaviy tahlil usullari, asosan, o'tgan davr natijalarini baholashga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy iqtisodiy sharoitda kelgusidagi moliyaviy natijalarni prognoz qilish va iqtisodiy xavflarni kamaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xarajat va daromad nisbatini modellashtirish ushbu vazifalarni hal etishda samarali boshqaruv vositasi hisoblanadi. Mazkur yondashuv narx, ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tarkibi, o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi. Ushbu model asosida kontributsiya marjasi, zararsizlik nuqtasi, xavfsizlik zaxirasi hamda operatsion leverage koeffitsiyenti kabi muhim moliyaviy ko'rsatkichlar aniqlanib, korxonaning foyda olish salohiyati va moliyaviy barqarorlik darajasi baholanadi. Ayniqsa, doimiy xarajatlar ulushi yuqori bo'lgan qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlarning foyda miqdoriga sezilarli ta'sirini modellashtirish orqali samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati kengayadi.

Mazkur yondashuv meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tannarxni optimallashtirish va foyda barqarorligini ta'minlashga qaratilgan strategik qarorlarni ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xarajatlar hisobi, mahsulot tannarxini aniqlash va foyda shakllanish mexanizmlarini o'rganishda boshqaruv hisobi bo'yicha fundamental ilmiy manbalar muhim nazariy asos hisoblanadi. Jumladan, Colin Druryning Management and Cost Accounting asarida xarajatlarni tasniflash, o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar konsepsiyasi, kontributsiya marjasi hamda zararsizlik nuqtasini aniqlash masalalari batafsil yoritilgan. Muallif xarajat-hajm-foyda (Cost-Volume-Profit, CVP) tahlilini qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy analitik vosita sifatida baholab, uning narx belgilash va ishlab chiqarish hajmini optimallashtirishdagi muhim rolini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, xarajatlar tarkibida o'zgaruvchan omillar ulushi yuqori bo'lgan meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv hisobi va tannarx hisobining zamonaviy konsepsiyalari Charles T. Horngren, Srikant M. Datar va Madhav V. Rajanning Cost Accounting: A Managerial Emphasis asarida chuqur yoritilgan. Mualliflar xarajatlar tuzilmasining foyda barqarorligiga ta'sirini operatsion leverage koeffitsiyenti orqali tahlil qilib, doimiy xarajatlar ulushi yuqori bo'lgan ishlab chiqarishlarda foydaning ishlab chiqarish hajmi o'zgarishlariga sezgirligi yuqori bo'lishini asoslab berganlar. Mazkur yondashuv energiya sig'imi va texnologik xarajatlar ulushi katta bo'lgan meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalari uchun alohida amaliy ahamiyatga ega.

Xarajatlarni strategik boshqarish masalalari Robert S. Kaplan va Anthony A. Atkinsonning Advanced Management Accounting asarida keng yoritilgan. Ushbu manbada faoliyatga asoslangan xarajatlash (Activity-Based Costing, ABC), samaradorlik ko'rsatkichlari va qiymat yaratish zanjiri konsepsiyalari asoslab berilgan. Mualliflar xarajatlarni faqat hisob-kitob obyekti sifatida emas, balki korxonaning raqobatbardoshligini shakllantiruvchi strategik omil sifatida talqin qiladilar. Bu yondashuv mahsulot assortimenti keng va xomashyo sifati o'zgaruvchan bo'lgan qayta ishlash korxonalarida xarajatlarni samarali boshqarishning nazariy asosini yaratadi.

Qaror qabul qilish jarayonida boshqaruv hisobining roli Peter Atrill va Eddie McLaneyning Management Accounting for Decision Makers asarida alohida yoritilgan. Mualliflar foyda marjasi, zararsizlik nuqtasi va xavfsizlik zaxirasi ko'rsatkichlarini korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash va iqtisodiy risklarni boshqarish vositasi sifatida izohlaydilar. Ushbu yondashuv tadqiqotda qo'llanilgan moliyaviy modellashtirish va sezgirlik tahlili metodologiyasi bilan bevosita uyg'unlashadi.

Korxonalarni boshqarish va nazorat qilish tizimlari masalalari Robert N. Anthony va Vijay Govindarajanning Management Control Systems asarida yoritilgan. Mualliflar moliyaviy ko'rsatkichlarni strategik maqsadlar bilan integratsiyalash, byudjetlashtirish tizimini takomillashtirish hamda javobgarlik markazlari orqali korxona faoliyati



samaradorligini oshirish imkoniyatlarini asoslab berganlar. Ushbu yondashuv xarajat va daromad nisbatini boshqaruvning muhim instrumenti sifatida baholashda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari tomonidan chop etilgan V.V. Kovalevning Upravlencheskiy analiz hamda G.V. Savitskayaning Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya asarlarida xo'jalik faoliyatini tahlil qilishning metodik asoslari keng yoritilgan. Ushbu manbalarda tannarx tahlili, foyda dinamikasi, ishlab chiqarish samaradorligi va moliyaviy natijalarni baholashning an'anaviy usullari tizimli tarzda bayon etilgan. Mazkur yondashuvlar korxonalarda xarajat va daromad nisbatini amaliy jihatdan baholash hamda moliyaviy ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishda muhim metodik asos vazifasini bajaradi.

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy manbalar xarajat–daromad nisbatini modellashtirish, foyda shakllanish mexanizmlarini tahlil qilish hamda korxona moliyaviy barqarorligini baholashning nazariy va metodologik asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariy yondashuvlar meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslashda keng qo'llanilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologiyasi tizimli va kompleks yondashuv asosida shakllantirilib, unda iqtisodiy-matematik, moliyaviy hamda boshqaruv tahlili usullaridan keng foydalanildi. Xarajat va daromad nisbatini modellashtirish jarayonida Cost–Volume–Profit (CVP) tahlili asosiy metod sifatida qo'llanildi. Ushbu metod yordamida kontributsiya marjasi, zararsizlik nuqtasi, xavfsizlik zaxirasi hamda operatsion leverage (operatsion tayanish) koeffitsiyenti hisoblab chiqildi va ularning korxona moliyaviy barqarorligiga ta'siri baholandi.

Empirik tadqiqot jarayonida korxonaning moliyaviy hisobotlari asosida gorizontaal va vertikal tahlil amalga oshirildi, bunda xarajatlarning iqtisodiy mohiyatiga ko'ra o'zgaruvchan va doimiy komponentlarga ajratildi. Bu esa xarajatlarning tarkibining foyda shakllanishiga ta'sirini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari, jumladan, material chiqishi, energiya sig'imi, mehnat unumdorligi, zaxiralar aylanish tezligi hamda pul oqimi intizomi moliyaviy natijalar bilan o'zaro bog'liqlikda kompleks baholandi.

Bundan tashqari, tadqiqotda sezgirlik tahlili usulidan foydalanilib, mahsulot narxi, ishlab chiqarish hajmi hamda xarajatlarning miqdoridagi o'zgarishlarning foyda ko'rsatkichlariga ta'siri modellashtirildi. Mazkur yondashuv korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va boshqaruv qarorlarini asoslash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va iqtisodiy talqin qilish usullari asosida tizimlashtirildi hamda ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirildi. Ushbu metodologik yondashuv meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida xarajat va daromad nisbatini samarali boshqarish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xarajat va daromad nisbatini modellashtirish jarayoni, asosan, narx, ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tarkibi va tannarx omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilishga asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, korxonaning umumiy tushumi mahsulot birligi narxi va sotilgan mahsulot hajmining ko'paytmasi sifatida aniqlanadi. Jami xarajatlarga esa ikki asosiy qismdan — o'zgaruvchan (ishlab chiqarish hajmiga bog'liq) va doimiy (ishlab chiqarish hajmidan nisbatan mustaqil) xarajatlardan iborat. O'zgaruvchan xarajatlarning mahsulot birligiga bevosita bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish hajmi ortishi yoki kamayishiga mos ravishda o'zgaradi. Doimiy xarajatlarga esa ma'lum ishlab chiqarish diapazonida nisbatan barqaror saqlanadi. Mahsulot birligi narxi va o'zgaruvchan xarajat o'rtasidagi farq birlik kontributsiya marjasi deb ataladi. Mazkur ko'rsatkich ishlab chiqarish hajmiga ko'paytirilganda, korxonaning doimiy xarajatlarni qoplash va foyda shakllanishini ta'minlaydi.

Zararsizlik nuqtasi korxona moliyaviy barqarorligining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu nuqtada korxona tushumi jami xarajatlarga teng bo'lib, moliyaviy natija nolga tenglashadi. Agar ishlab chiqarish hajmi zararsizlik nuqtasidan yuqori bo'lsa, korxona foyda oladi, aks holda zarar yuzaga keladi. Zararsizlik hajmi doimiy xarajatlarning miqdori va birlik kontributsiya marjasiga bog'liq bo'lib, kontributsiya marjasi ortishi zararsizlik hajmining pasayishiga olib keladi. Shu sababli xomashyo sarfini optimallashtirish, energiya samaradorligini oshirish, mehnat unumdorligini ko'paytirish hamda narx siyosatini takomillashtirish orqali zararsizlik nuqtasini kamaytirish mumkin. Xavfsizlik zaxirasi esa korxonaning amaldagi tushumi bilan zararsizlik nuqtasi o'rtasidagi farqni ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, korxonaning ishlab chiqarish va bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarga moslashuvchanligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Operatsion leverage (operatsion tayanish) koeffitsiyenti foydaning ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlarga sezgirlik darajasini ifodalaydi. Doimiy xarajatlarning ulushi yuqori bo'lgan korxonalarda ushbu ko'rsatkich yuqori bo'lib, ishlab chiqarish hajmidagi kichik o'zgarishlar foyda miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli



energiya sig'imi yuqori bo'lgan yoki aseptik texnologiyalar qo'llaniladigan qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hajmini barqaror saqlash strategik ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish hajmi ortishi bilan birlik tannarx kamayadi, chunki doimiy xarajatlar ko'proq mahsulot birligiga taqsimlanadi. Shu bois ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, mahsulot chiqish koeffitsiyentini oshirish va texnologik yo'qotishlarni kamaytirish tannarxni pasaytirish hamda foyda marjasini oshirish imkonini beradi. Yalpi foyda marjasi korxona tushumidan sotilgan mahsulot tannarxini ayirish orqali aniqlanib, ishlab chiqarish samaradorligi va narx siyosatining umumiy natijasini ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari xarajat va daromad nisbatini ishlab chiqarishning real ko'rsatkichlari bilan integratsiyalash modelning amaliy ahamiyatini oshirishini ko'rsatdi. Xususan, xomashyo chiqish darajasining ortishi mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xomashyo sarfini kamaytiradi, natijada o'zgaruvchan xarajatlar qisqaradi, kontributsiya marjasi oshadi va zararsizlik nuqtasi pasayadi. Energiya samaradorligini oshirish energetik xarajatlarni kamaytiradi, mehnat unumdorligining ortishi esa ishlab chiqarish xarajatlarni optimallashtiradi. Aylanma kapital aylanish tezligining oshishi korxonaning pul oqimlarini tezlashtirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sezgirlik tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, mahsulot narxining oshishi foyda miqdorining ortishiga olib keladi, o'zgaruvchan xarajatlarning ortishi esa foyda marjasining kamayishiga sabab bo'ladi. Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi kontributsiya marjasi orqali foyda darajasiga ta'sir ko'rsatadi, doimiy xarajatlarning o'zgarishi esa moliyaviy natijaga bevosita ta'sir qiladi. Shunday qilib, xarajat va daromad nisbatini modellash tirish narx, ishlab chiqarish hajmi, tannarx va mahsulot tarkibi omillarining moliyaviy natijalarga ta'sirini kompleks baholash imkonini beradi. Mazkur model yordamida korxona o'zining moliyaviy barqarorligi, xavfsizlik zaxirasi va foyda shakllanish mexanizmlarini aniqlab, ishlab chiqarish, marketing va investitsiya qarorlarini iqtisodiy jihatdan asoslangan holda qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tadqiqot davomida amaliy baholash meva-sabzavotni qayta ishlash korxonasining 2021–2023-yillardagi moliyaviy hisobotlari asosida amalga oshirildi. "Asian Jam" MCHJ bo'yicha to'plangan ma'lumotlar yagona analitik formatga keltirilib, daromadlar, o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar tarkibiy bloklar bo'yicha alohida tasniflandi. Ushbu ma'lumotlar asosida kontributsiya marjasi, zararsizlik nuqtasi, xavfsizlik zaxirasi, operatsion leverage (operatsion tayanish) koeffitsiyenti, birlik tannarx hamda yalpi foyda marjasi kabi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar hisoblab chiqildi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish samaradorligini kompleks baholash maqsadida asosiy operatsion indikatorlar — material chiqishi darajasi, energiya intensivligi, mehnat unumdorligi, zaxiralar aylanish tezligi hamda pul oqimi intizomi (debitor va kreditor qarzdorlik kunlari) aniqlanib, ular moliyaviy natijalar bilan integratsiyalashgan holda tahlil qilindi. Mazkur yondashuv moliyaviy ko'rsatkichlarning shakllanishiga ishlab chiqarish omillarining ta'sirini aniq baholash, shuningdek, korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va moliyaviy barqarorligini kompleks asoslash imkonini berdi (1-jadval).

1-jadval. Meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida xarajat-daromad nisbatining amaliy baholash paneli¹

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	"Asian jam" MCHJ		
			2021	2022	2023
1.	Sof tushum (Daromad)	mlrd so'm	3 760	5 990	6 110
2.	Tannarx (sotilgan mahsulot xarajatlari)	mlrd so'm	1 960	3 820	4 550
3.	Yalpi foyda	mlrd so'm	1 800	2 170	1 560
4.	Yalpi foyda marjasi	%	47,9	36,3	25,5
5.	Operatsion foyda	mlrd so'm	970	1 145	80
6.	Operatsion marja	%	25,8	19,1	1,3
7.	O'zgaruvchan xarajatlar ulushi	%	62	65	70
8.	Doimiy xarajatlar ulushi	%	38	35	30
9.	Hissadorlik (kontributsiya) marjasi	%	38	35	30
10.	Zararsizlik nuqtasi (tushumda)	mlrd so'm	2 320	3 150	4 830
11.	Xavfsizlik zaxirasi	%	38,3	47,4	20,9
12.	Operatsion tayanish koeffitsiyenti	birlik	1,9	2,4	3,5
13.	Birlik tannarx	so'm/kg	9 850	10 520	11 940
14.	Yalpi marja (brutto marja)	%	47,9	36,3	25,5

1 Muallif ishlanmasi



15.	Material chiqishi (xomashyo qaytimi)	%	72,5	75,0	78,0
16.	Energiya intensivligi	kVt·soat/kg	0,83	0,79	0,76
17.	Mehnat unumdorligi	kg/soat	18,4	20,1	21,8
18.	Zaxira aylanishi	marta/yil	5,6	6,1	6,4
19.	Pul oqimi intizomi (debitor/kreditor kunlari)	kun	42/38	39/36	35/33

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, barcha korxonalarda sof tushum 2021–2023-yillar davomida o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa-da, xarajatlarning tez sur'atlarda ortishi natijasida yalpi foyda marjasi qisqarish dinamikasini namoyon etgan. Xususan, "Asian Jam" MCHJda 2021-yilda sof tushum 3,76 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 5,99 trillion so'mga (+59 foiz) oshgan. Biroq ishlab chiqarish xarajatlarning yuqori sur'atlarda o'sishi natijasida yalpi foyda marjasi 47,9 foizdan 36,3 foizgacha pasaygan. 2023-yilda sof tushum 6,11 trillion so'mga yetgan bo'lsa-da, yalpi foyda marjasining 25,5 foizgacha qisqarishi tannarxning sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, o'zgaruvchan xarajatlar ulushi o'rtacha 60–70 foizni, doimiy xarajatlar ulushi esa 30–40 foizni tashkil etgan. Ushbu nisbat meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hajmi o'zgarishlariga yuqori sezgirlik mavjudligini tasdiqlaydi. Kontributsiya marjasi barcha korxonalarda bosqichma-bosqich qisqarib borgan bo'lib, bu holat asosan xomashyo va energiya resurslari narxlarining oshishi bilan izohlanadi. Natijada zararsizlik nuqtasi yuqorilab, foyda olish uchun zarur minimal tushum hajmi ortgan. Jumladan, "Asian Jam" MCHJda zararsizlik nuqtasi 2,32 trillion so'mdan 4,83 trillion so'mgacha oshgan.

Xavfsizlik zaxirasi ko'rsatkichi korxonalar kesimida turlicha dinamikani namoyon etgan. "Asian Jam" MCHJda ushbu ko'rsatkich 38,3 foizdan 20,9 foizgacha kamaygan bo'lib, bu korxona faoliyatining bozor va xarajat omillariga nisbatan sezgirliги oshganini bildiradi. Shu bilan birga, operatsion leverage koeffitsiyenti 1,9 birlikdan 3,5 birlikgacha oshgan, bu esa doimiy xarajatlar ulushining ortishi natijasida foydaning ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlarga nisbatan sezgirliги kuchayganini ko'rsatadi.

Birlik tannarx barcha korxonalarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, "Asian Jam" MCHJda ushbu ko'rsatkich 9 850 so'mdan 11 940 so'mgacha oshgan. Mazkur o'sish, asosan, inflyatsiya jarayonlari, energiya tariflarining ko'tarilishi hamda xomashyo narxlarining oshishi bilan izohlanadi.

Ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar — material chiqishi, energiya intensivligi va mehnat unumdorligi — ijobiy dinamikani namoyon etgan. Jumladan, "Asian Jam" MCHJda material chiqishi 72,5 foizdan 78 foizgacha oshgan, energiya sarfi esa 0,83 kVt·soat/kg dan 0,76 kVt·soat/kg gacha kamaygan. Bu texnologik jarayonlarning optimallashtirilgani va resurslardan samarali foydalanish darajasi oshganini ko'rsatadi. Mehnat unumdorligi ham barcha korxonalarda 17–18 kg/soatdan 21 kg/soatgacha oshgan, bu esa ishlab chiqarish jarayonining samaradorligi ortganidan dalolat beradi.

Zaxiralar aylanishi ko'rsatkichlari ham ijobiy natijalarni aks ettirgan bo'lib, 5,2 martadan 6,4 martagacha oshgan. Bu ishlab chiqarish siklining tezlashgani va mahsulot realizatsiyasi samaradorligi yaxshilanganini bildiradi. Pul oqimi intizomi tahlili ham ijobiy natijalarni ko'rsatgan. Xususan, "Asian Jam" MCHJda debitor va kreditor qarzdorlik kunlari mos ravishda 42/38 kundan 35/33 kungacha, "Green World-Group" MCHJda esa 47/42 kundan 41/37 kungacha qisqargan. Ushbu holat korxonalarda moliyaviy boshqaruv samaradorligi oshgani, hisob-kitoblar tizimi takomillashgani hamda pul oqimlari barqarorligi mustahkamlanganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, xarajat va daromad nisbatidagi o'zgarishlar foyda marjasi, zararsizlik nuqtasi, xavfsizlik zaxirasi hamda ishlab chiqarish samaradorligi kabi muhim moliyaviy ko'rsatkichlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xarajatlarning ortishi kontributsiya marjasining qisqarishiga olib keladi, natijada zararsizlik nuqtasi yuqorilaydi va korxonaning moliyaviy barqarorlik zaxirasi nisbatan kamayadi. Shu bilan birga, energiya tejakor texnologiyalarni joriy etish, material chiqishini oshirish, mehnat unumdorligini yaxshilash va ishlab chiqarish jarayonidagi yo'qotishlarni optimallashtirish orqali kontributsiya marjasini kengaytirish, tannarxni pasaytirish hamda foyda barqarorligini mustahkamlash imkoniyati mavjud. Shu nuqtai nazardan, xarajat va daromad nisbatini tizimli tahlil qilish nafaqat moliyaviy natijalarni baholash, balki ishlab chiqarish, marketing va investitsiya qarorlarini iqtisodiy jihatdan asoslashda samarali boshqaruv vositasi hisoblanadi.

Yillar kesimida o'zgarishlarni tahlil qilishning asosiy maqsadi foyda marjasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni boshqarish imkoniyatlarini belgilashdan iborat. Bunda mahsulot narxi, ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tarkibi, o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar dinamikasi alohida baholanadi. Xususan, xomashyo chiqish darajasi oshirilganda mahsulot birligiga to'g'ri keladigan material sarfi kamayadi, bu esa o'zgaruvchan xarajatlarni qisqartirib, foyda marjasining kengayishiga xizmat qiladi. Shuningdek, sovitish va isitish jarayonlaridagi energiya yo'qotishlarini kamaytirish energiya xarajatlarini optimallashtiradi hamda ishlab chiqarish samaradorligini



oshiradi. Ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, xodimlarning ko'p funksiyali ko'nikmalarini rivojlantirish va mehnatni samarali tashkil etish orqali mehnat unumdorligi ortadi, natijada konversiya xarajatlari pasayadi va korxonaning umumiy moliyaviy natijalari yaxshilanadi.

Mazkur natijalarga asoslanib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Birinchidan, korxonalarda xarajat va daromad nisbatini doimiy monitoring qilish va CVP (Cost–Volume–Profit) tahlilini boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga integratsiya etish zarur.

Ikkinchidan, energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik samaradorligini oshirish orqali o'zgaruvchan xarajatlarni optimallashtirish lozim.

Uchinchidan, xomashyo sarfini me'yorlashtirish, material chiqish koeffitsiyentini oshirish va texnologik yo'qotishlarni minimallashtirish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur.

To'rtinchidan, mehnat unumdorligini oshirish maqsadida xodimlarning malakasini oshirish, ko'p funksiyali mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq va samarali foydalanish hamda mahsulot assortimentini bozor talabiga mos ravishda optimallashtirish orqali foyda marjasini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Ushbu xulosa va takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Drury C. Management and Cost Accounting. – London: Cengage Learning, 2018. – 944 p.
2. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. – 16th ed. – Harlow: Pearson Education, 2020. – 912 p.
3. Kaplan R.S., Atkinson A.A. Advanced Management Accounting. – 3rd ed. – Harlow: Pearson Education, 2019. – 784 p.
4. Atrill P., McLaney E. Management Accounting for Decision Makers. – 9th ed. – Harlow: Pearson Education, 2021. – 680 p.
5. Anthony R.N., Govindarajan V. Management Control Systems. – 13th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2017. – 768 p.
6. Шеремет А.Д. Управленческий анализ. – М.: ИНФРА-М, 2020. – 352 с.
7. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – Минск: Новое знание, 2019. – 688 с.
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Boshqaruv hisobi bo'yicha uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti, 2021. – 156 b.
9. Meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarining 2021–2023-yillardagi moliyaviy hisobotlari. – Korxona ichki ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>